


“O‘zenergositish”

aksiyadorlik jamiyati

**Boshqaruv raisining birinchi
o‘rinbosari**



J. Ashirboev

“05” 01 2026 yil

**“O‘zenergositish” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 2025-yil 12-oylik
UMUMIY HISOBOT**

**I. “O‘zenergositish” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi
chora-tadbirlar to‘g‘risida**

“O‘zenergositish” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-son farmoniga asosan tashkil etilgan. Farmonga muvofiq, quyidagilar “O‘zenergositish” AJning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishi etib belgilangan:

- 2024-yil 1-iyuldan boshlab elektr energiyasini markazlashgan tartibda xarid qilish va sotish;

- dastlabki bosqichda elektr energiyasining raqobatga asoslangan ulgurji bozori mexanizmiga o‘tish davrida elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilardan elektr energiyasini xarid qilish hamda hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga va yirik iste‘molchilarga belgilangan tariflarda sotish;

- keyingi bosqichda elektr energiyasini onlayn savdo platformasida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxda sotish;

- elektr energiyasining eksport va import operatsiyalarini shartnomalar asosida amalga oshirish funksiyalarni amalga oshirish vazifalari yuklatilgan.

Yagona aksiyadorning 2023-yil 24-noyabrdagi 1-sonli qaroriga asosan Jamiyatda Komplaens nazorati bo‘limi tashkili etilib, 1 nafar shtat birligi, bosh mutaxassis lavozimi joriy qilingan.

“O‘zenergositish” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko‘rish borasida muntazam ishlar olib borilmoqda.

Xususan, Jamiyatda tashqi va ichki korrupsiyaviy xavf-xatarlar omillari tahlili o‘tkazilgan, korrupsiyaga qarshi kurashish xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilishini oldini olish borasida o‘quv mashg‘ulotlar o‘tkazilib kelinmoqda.

Jumladan, Bosh prokuratura xodimlari bilan hamkorlikda joriy yilning 5-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy Kengashning “Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar

natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar”ga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishda belgilab berilgan muhim topshiriqlar yuzasidan o‘quv seminar o‘tkazildi.

Seminar davomida boshqaruv raisi tomonidan, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishda murosasizlik, halollik, ochiq va shaffof ishlash orqali qonun ustuvorligiga erishish, korrupsion holatlarga yo‘l qo‘ymaslik hamda shu kabi illatlarga qarshi kurashish lozimligi belgilab berildi.

Bundan tashqari, Komplaens nazorati bo‘limi xodimi tomonidan joriy yil 27 may kuni xodimlar bilan “zoom” platformasi orqali “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va Odob-axloq qoidalari” mavzusida o‘quv seminar o‘tkazilib, manfaatlar to‘qnashuvi xizmat vaqtidaga ko‘rinishlari hamda tashkilot xodimlarining odob-axloq qoidalari borasida tushuntirishlar berildi.

II. Siyosat va tartib taomillar to‘g‘risida

Hisobot davrida Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmini takomillashtirish maqsadida bir qator ichki me‘yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar ishlab chiqildi.

Xususan, Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etishning ustuvor vazifalarini o‘z vaqtida, to‘liq hamda sifatli amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tavsiya qilingan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom”, “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti”, “Odob-axloq qoidalari” va boshqa shu kabi 12 ta ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib, qabul qilindi.

Bundan tashqari, qo‘shimcha Kuzatuv kengashi tomonidan 2025-yil 14-martdagi 1-sonli Bayoni bilan 4 ta hujjat qabul qilingan.

Yuqoridagi barcha ichki me‘yoriy hujjatlar elektron tarzda axborot olish uchun Jamiyatning ichki rasmiy-veb saytida joylashtirildi.

Shular bilan birga, Jamiyat “SERT International” xalqaro tashkiloti tomonidan mustaqil auditdan o‘tkazildi. Audit jarayonida Jamiyatning boshqaruv tizimi, risklarni boshqarish bo‘yicha amaliyotlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi o‘rganilib, jarayonlar xalqaro standartlarga to‘la mosligi tasdiqlandi.

Jamiyat - Korrupsiyaga qarshi samarali boshqaruv tizimiga egaligini tasdiqlovchi - ISO 37001:2016; Komplaens muvofiqlik menejmenti tizimi yo‘lga qo‘yilganligini anglatuvchi - ISO 37301:2016; Sifat menejmenti tizimiga egaligini bildiruvchi - ISO 9001:2016 xalqaro sertifikatlarini qo‘lga kiritdi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Jamiyatning Komplaens nazorati bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentyabrdagi PF-166-sonli Farmoni bilan belgilangan “2023-2030 yillarga mo‘ljallangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tish” Konsepsiya, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-sonli Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-sonli Farmon talablari asosida faoliyat olib borilmoqda.

Jamiyat funksiyalarini bajarishda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash maqsadida <https://e-anticor.uz> platformasiga tegishli ma'lumotlar kiritilib borilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni bilan belgilangan Jamiyatning funksiyalari korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyilligi darajasi baholashdan o'tkazilib, barcha funksiyalar "past" baholandi.

IV. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Jamiyatning ichki me'yoriy hujjati - "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom" tashkilot standarti talablariga muvofiq korrupsiogen omillarning barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida har yili barcha xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli-deklaratsiya to'ldirilishi belgilab qo'yilgan. Shu maqsadda Jamiyatning jami 83 nafar (boshqaruv) xodimi tomonidan deklaratsiya to'ldirilishi ta'minlandi.

Jamiyat xodimlarining deklaratsiyalari tahlili natijasida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Manfaatlar to'qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish maqsadida quyidagi *(ishga yangi qabul qilingan va rotatsiya bo'lgan xodimlar; real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan fakti bo'yicha; yillik deklaratsiya)* holatlarda xodimlar tomonidan deklaratsiya taqdim etilishi belgilangan va amalga oshirilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritish va kontragentlarni tekshirish yo'nalishida

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-martdagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonunda belgilangan, moliyaviy mablag'lardan to'g'ri foydalanish, tejamkorligi va samaradorligi, ochiqlik va shaffoflik, korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik kabi asosiy prinsiplari Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilishi bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Hisobot davrida Jamiyat tomonidan tuzilgan barcha xo'jalik shartnomalariga 100 % korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi shartlar kiritildi. Kontragentlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarni shartnomaga kiritishni rad etish holatlari kuzatilmadi.

Shuningdek, Jamiyatning ish beruvchi sifatida xodimlar bilan tuzilgan barcha 90 ta (100%) mehnat shartnomalariga ham korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalar kiritilgan

Kontragentlarni tekshirish

2025 yilning 12-oyi davomida Jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalarni imzolashdan oldin barcha kontragentlar tekshiruvdan o'tkazildi, kontragentlar tekshiruvlari soni 5 tani tashkil qildi, salbiy holatlar kuzatilmagan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Jamiyat tomonidan hisobot davrida jami 42 nafar ishga nomzodlar tekshirilishi ta'minlandi hamda suhbat natijalariga ko'ra 32 nafar nomzodlar ishga yangi qabul qilinib, ular bilan mehnat shartnomasi tuzildi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya yo'nalishida

Joriy yilning 12-oyi davomida "O'zenergosotish" AJning jami 83 nafar xodimlari Huquqni muhofaza qilish akademiyasining elektron platformasi orqali o'qitildi, shundan 54 nafari "Davlat xizmatida xalollikni ta'minlash" mavzusida 24 soatlik, shundan 1 nafar Komplaens nazorati xodimi "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimini samarali ishlashini ta'minlash" mavzusida 36 soatlik maxsus chuqurlashtirilgan hamda 29 nafra yangi ishga qabul qilingan xodimlar "Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzusida o'quv kurslarida malakasi oshirildi.

Shuningdek, haftaning xar seshanba kunlari Jamiyat xodimlari bilan sohaga oid me'yoriy xujjatlar talablarini o'rganish yuzasidan o'quv mashg'ulotlar o'tkazilib kelinmoqda.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidan xabarlar

Jamiyatning **rasmiy saytida korrupsiyaga qarshi kurashish sahifasi ochilgan** va bu yo'nalishdagi ichki me'yoriy hujjatlar joylashtirilgan hamda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar doimiy yoritib borilmoqda.

Shuningdek, xodimlarining korrupsion harakatlari yuzasidan **xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari** tashkil etilib, ular to'g'risidagi ma'lumotlar tashkilotning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoq kanallarida ochiq joylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Jamiyat tomonidan korrupsiya xaqida xabar berishga mo'ljallangan quyidagi aloqa kanallari tashkil etilgan:

Ishonch telefoni 55-516-06-81;

Web-sayt <https://www.ues-jsc.uz/>;

Telegramm kanal: https://t.me/UES_ANTIKOR ;

facebook saxifa: https://www.facebook.com/?locale=ru_RU

elektron pochta: ues.antikor@gmail.com

Hisobot davrida mazkur aloqa kanallari va boshqa manbaalar orqali "O'zenergosotish" AJ xodimlarining noqonuniy xatti-xarakatlari yuzasidan ma'lumotlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat yo'nalishida

Komplaens nazorat bo'limi tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

Davlat xaridlarini amalga oshirishda har bir kontragentni tekshirish va davlat xaridlari to'g'risidagi normativ hujjatlar asosida davlat xaridlarini tashkillashtirish;

Jamiyat xodimlari tomonidan ichki tartib qoidalarga, shu jumladan, “Odob-axloq qoidalari” talablariga rioya etilishini o‘rganish, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha tizimli tahlil o‘tkazish;

Jamiyat xodimlari orasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar olib borish, huquqiy ongini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va xar qanday qonunbuzarlik uchun javobgarlik muqarrarligi borasida tizimli tushuntirish ishlar olib borish.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ko‘rilgan choralar

Hisobot davrida Jamiyat xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlar b‘ulmadi.


IX. Xulosalar

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyatida Komplaens nazorati bo‘limi Yagona aksiyadorning 2023-yil 24-noyabrdagi 1-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan bo‘lib, o‘z faoliyatini olib bormoqda. Komplaens nazorati bo‘limi tomonidan Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi joriy qilish va samarali faoliyat olib borishini ta‘minlash maqsadida, ichki idoraviy xujjatlar ishlab chiqilib, xodimlar orasida salbiy holatlar kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar

Jamiyatda korrupsiyaviy holatlar sodir etilishini oldini olishga qaratilgan amaliy tadbirlar bilan bir qatorda targ‘ibot tushuntirish ishlarini olib borish, hamda faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan funksiyalarni to‘liq raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish choralarini ko‘rish. Shuningdek, doimiy ravishda xodimlarning bilim ko‘nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish lozim bo‘ladi.

Komplens nazorat xizmati
Bosh mutaxassisi

**F. Tadjibaev**